

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 523 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB O'LSHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQUISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FOND LARDAN VA ISHLAB CHI QARISH QU VVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHI QARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Putatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY Tajribalari	423
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB Olish TEKNOLOGIYASI	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	
O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	448
Azizova Roxila Baxodir qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	452
Isakova Naima Ikromjonovna	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA AJ "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	459
Bo'ranboyeva Shoira Rustamovna	
"QISHLOQ HUDUDLARIDA XOTIN-QIZLARNING BARQAROR TURMUSH TARZINI TA'MINLASHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI"	466
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Niyozova Ruxsora	
SMART TOURISM KAK INSTRUMENT USTOYCHIBOĖO RAZVITIYA TURISTSKIX REGIONOV: MEJDUHARODNYY OPIYT I REGIONALNAYA ADAPTIYIYA	471
Usmanova Aziza Bahodirovna	
XUFIYONA IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING TUTGAN O'RNI	477
Atamurodov To'liqn To'ymurodovich, Mamatkulov Salimjon Rahmonkulovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
IQTISODIYOTDA TURIZM O'RNINI STATISTIK TAHLILINING XALQARO STANDARTLARI VA TAJRIBALARI	482
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMIDA BANK KREDITLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	489
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDAN MOLIYAVIY RESURLARNI JALB ETISHDA SUVEREN KREDIT REYTINGLARINING O'RNI	494
Mamadaliyev Poziljon Mansurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI	500
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
MILLIY SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INSON KAPITALINING O'RNI	506
Yunusov Foziljon G'ulomqodirovich	
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINI FLOTATSIYALASHDA REAGENT REJIMINI TAKOMILLASHTIRISH	511
Shodiyev Abbas Ne'mat o'g'li, Egamberdiyev Baxtiyor Barat o'g'li	
EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI BO'YICHA MUDDATI O'TGAN DEBITOR QARZDORLIKNI ANIQLASHDA RAQAMLI SOLIQ NAZORATI MONITORINGINING QO'LLANILISHI VA SAMARADORLIGI	517
Tashmuxeamedov Dilmurod Mirabzalovich	



EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI BO'YICHA MUDDATI O'TGAN DEBITOR QARZDORLIKNI ANIQLASHDA RAQAMLI SOLIQ NAZORATI MONITORINGINING QO'LLANILISHI VA SAMARADORLIGI

Tashmuxe'dov Dilmurod Mirabzalovich

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi huzuridagi
Xalqaro soliqqa tortish ma'muriyatchiligi boshqarmasining
davlat soliq bosh inspektori,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: dilmurod3250@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida 2016–2024-yillar davomida kuzatilgan asosiy o'zgarishlar, tashqi savdo aylanmasining o'sish tendensiyalari hamda tovar va geografik tarkibni takomillashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish masalalari kompleks tahlil qilingan. Davlat rahbari tashabbuslari, qabul qilingan qonun hujjatlari hamda hukumat qarorlarining tashqi savdo jarayonlariga ta'siri baholangan. Shuningdek, eksport–import operatsiyalarida soliqqa tortish, muddati o'tgan debitorlik qarzdorlikni aniqlash va soliq nazorati mexanizmlarini takomillashtirishga doir normativ-huquqiy bazaning samaradorligi tahlil etilgan. Tadqiqotda 2010–2024-yillar kesimida soliq nazorati monitoringi natijalari taqqoslanib, nazorat bosqichlari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikni aniqlash darajasi (Kxv) hamda o'rtacha ko'rsatkichlar (An) hisoblab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, eksport–import, soliq nazorati, debitor qarzdorlik, raqamli iqtisodiyot, soliq imtiyozlari, monitoring, raqobatbardoshlik, boj to'lovlari, davlat siyosati.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of changes in Uzbekistan's foreign economic activity during 2016–2024, examines trends in foreign trade turnover, and assesses improvements in competitiveness through the enhancement of the commodity and geographical structure of trade. The study evaluates the impact of presidential initiatives, newly adopted laws, and government regulations on foreign trade processes. Particular attention is given to the taxation of export–import operations, the detection of overdue accounts receivable, and the improvement of tax control mechanisms. The research compares tax monitoring results for 2010–2024 and calculates the overdue detection indicator (Kxv) and its average values (An) across monitoring phases.

Keywords: foreign trade, export–import, tax control, overdue accounts receivable, digital economy, tax incentives, monitoring, competitiveness, customs duties, state regulation.

Аннотация. В статье комплексно проанализированы изменения во внешнеэкономической деятельности Узбекистана в 2016–2024 годах, динамика внешнеторгового оборота, а также вопросы повышения конкурентоспособности за счёт совершенствования товарной и географической структуры торговли. Оценено влияние инициатив руководства страны, принятых законодательных актов, указов и постановлений Правительства на развитие внешнеторговых процессов. Особое внимание уделено налогообложению экспортно-импортных операций, выявлению просроченной дебиторской задолженности и повышению эффективности механизмов налогового контроля. В рамках исследования сопоставлены результаты налогового мониторинга за 2010–2024 годы, рассчитаны показатели выявления просроченной задолженности (Kxv) и их средние значения (An) по этапам мониторинга.

Ключевые слова: внешняя торговля, экспорт–импорт, налоговый контроль, дебиторская задолженность, цифровизация, налоговые льготы, мониторинг, конкурентоспособность, таможенные платежи, государственная политика.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini¹ tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmonida barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati hamda soliq idoralari faoliyati samaradorligini oshirish, soliq tizimi xavfsizligini ta'minlash va soha faoliyatini ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish ustuvor vazifa etib belgilangan. Mazkur hujjatda ish jarayonlarini tashkil etishda raqamli, zamonaviy shakl va usullardan samarali foydalanish bilan bog'liq masalalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan [1].

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, tashqi savdo aylanmasining tovar va geografik tarkibini takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, shuningdek, qabul qilingan yangi qonun hujjatlari hamda Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining farmon va qarorlari natijasida 2016–2024-yillar davomida tashqi savdo faoliyatida barqaror o'sish sur'atlari kuzatildi. Jumladan, 2016–2020-yillar oralig'ida tashqi savdo aylanmasi

2016-yilga nisbatan 1,71 barobarga oshib, 31,5 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi, 2023-yilga kelib esa mazkur ko'rsatkich 48,6 mlrd AQSH dollariga yetdi. Eksport operatsiyalari hajmi ham izchil o'sib, 2016-yilga nisbatan 2019-yilda 1,36 barobarga ko'payib 8,8 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi hamda 2023-yilda 12,9 mlrd AQSH dollariga yetdi [2].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tashqi savdo umumiy aylanmasida eksport va import operatsiyalarining o'zaro nisbatini tahlil qilish eksport tovar aylanmasining yuqoriligi davlat byudjeti daromadlarida soliq, bojxona va boshqa majburiy tushumlarning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Bu holat tashqi iqtisodiy faoliyatning mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi muhim rolini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur jarayonlar tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha soliq nazoratini tizimli ravishda olib borish, eksport-import faoliyati doirasida yuzaga keladigan qarzdorliklarni, xususan muddati o'tgan debitorlik qarzdorlikni o'z vaqtida aniqlash va tartibga solish masalalarining dolzarbligini oshiradi. Bu esa soliq nazorati mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini belgilab beradi.

Tashqi savdo tizimini soliqlar orqali tartibga solish mexanizmlarini rivojlantirish, importyorlarga berilgan soliq va bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishini ta'minlash, eksport-import operatsiyalarida soliq nazorati sohasida umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni samarali qo'llash, shuningdek soliq qarzdorligi va debitor qarzdorlik bilan bog'liq masalalar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish soliq nazoratining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi muhim institutsional vosita ekanligini asoslab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport–import operatsiyalarini soliqqa tortish bilan bog'liq muammolar va ularni amaliyotga tatbiq etishning ayrim jihatlarini respublika iqtisodchi olimlarining ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Jumladan, O.Q. Abduraxmonov, M.A. Alimardonov, A. Vahobov, E.F. Gadoyev, A.S. Jo'rayev, J.R. Zaynalov, B.I. Isroilov, T.S. Malikoyev, O.O. Olimjonov, N.X. Xaydarov, Z.N. Qurbonov, Sh.A. Toshmatov, B.E. Toshmurodova, N. Kuziyeva, N. Ashurova, J.J. O'rmonov hamda Q. Yaxyoyevlarning ilmiy ishlarida eksport–import operatsiyalarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish, tashqi savdo faoliyatida soliq nazoratini kuchaytirish va soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish masalalari chuqur tahlil qilingan.

Mazkur tadqiqotlarda eksport va import jarayonlarida soliq siyosatini qo'llashning nazariy asoslari, soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligi, shuningdek tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq masalalar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shu bilan birga, ushbu ilmiy manbalar eksport–import operatsiyalarida soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish bo'yicha muhim metodologik xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida eksport–import operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikni aniqlash va soliq nazoratining raqamli monitoring samaradorligini baholashga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy usullardan foydalanildi.

Mantiqiy tahlil va umumlashtirish usuli soliq nazorati sohasidagi amaldagi me'yoriy-huquqiy bazani, vakolatli davlat organlarining vazifalari hamda amaliy mexanizmlarni tizimli o'rganish jarayonida qo'llanildi.

Tarkibiy va dinamik tahlil usuli orqali 2010–2024-yillar davomida muddati o'tgan debitor qarzdorlik hajmi, aniqlangan huquqbuzarlik holatlari, moliyaviy jarimalar hamda qo'shimcha hisoblangan soliq summalarining o'zgarish dinamikasi baholandi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



Taqqoslama tahlil usuli raqamli soliq nazorati monitoringi natijalarini joriy etish bosqichlari kesimida solishtirish va ularning samaradorligini aniqlashda foydalanildi.

Ko'rsatkichlarni hisoblash usuli muddati o'tgan debitor qarzdorlikni aniqlash darajasini ifodalovchi (K_{xv}) ko'rsatkichi hamda monitoring bosqichlari bo'yicha o'rtacha qiymatni aks ettiruvchi (A_n) ko'rsatkichini hisoblash va tahlil qilishda qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha nazorat-monitoring ishlarining Davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshirilishi natijalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, soliq xizmati tomonidan valyuta hamda eksport–import operatsiyalarini nazorat qilish sohasida amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishi tizimli ravishda o'rganilgan. Mazkur jarayonda soliq to'lovchilarga amaliy-uslubiy yordamlar ko'rsatish, tekshiruv va tahlillar o'tkazish, aniqlangan xato va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etilishini ta'minlashga qaratilgan choralar izchil amalga oshirilgan.

Shu munosabat bilan, tadqiqot ishining ushbu bo'limida 2010–2024-yillar davomida Davlat soliq xizmati organlari tomonidan tashqi savdo eksport va import operatsiyalarida yuzaga kelgan muddati o'tgan debitorlik qarzdorlik holatlari bo'yicha olib borilgan nazorat-monitoring ishlari natijalari o'rganildi va tahlil qilindi. Tahlillar muddati o'tgan debitor qarzdorlikni aniqlash, nazorat qilish va tartibga solish mexanizmlarining samaradorligini baholashga qaratildi.

Tadqiqotda Respublika soliq xizmati organlari tomonidan muddati o'tgan debitor qarzdorlik holatlarini soliq nazorati monitoringi asosida yuritish jarayoni uch bosqichga ajratilgan holda ko'rib chiqildi. Xususan, birinchi bosqich 2010–2015-yillarni, ikkinchi bosqich 2016–2020-yillarni hamda uchinchi bosqich 2021–2024-yillar davrini qamrab oladi. Mazkur bosqichlar kesimida nazorat-monitoring ishlarining natijalari, ularning tashqi savdo operatsiyalaridagi moliyaviy intizomni mustahkamlashga ko'rsatgan ta'siri asosida umumlashtirildi (1-jadval).

1-jadval. Tashqi savdo operatsiyalari ustidan monitoring qilish boshqarmasi tomonidan 2021–2024 yillarda amalga oshirilgan ishlar natijalari to'g'risida ma'lumot (mlrd.so'm) [3]

Eksport va import operatsiyalarini soliqqa nazorati sohasida qilingan ishlar								
Yo'nalishlar nomi	2010-y	2015-y	2018-y	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y	2024-y
Nazorat(tekshiruv) va monitoring natijasida aniqlangan huquqbuzarlik holatlar soni.	921	1083	2686	4281	7487	10631	12068	15296
Nazorat(tekshiruv) va monitoringda qo'shimcha hisoblangan soliq va to'lovlar summasi (mlrd.so'mda)	8,47	21,02	22,01	18,75	561,65	718,12	1810,69	2428,64
Muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun qo'llanilgan moliyaviy jarima (mlrd. so'mda)	15,05	171,8	41,61	32,38	3134,7	5793,4	4867,3	6169,2

O'tkazilgan tahlil va tadqiqotlar jarayonida Davlat soliq xizmati organlari tomonidan tashqi savdo eksport va import operatsiyalari bo'yicha amalga oshirilgan nazorat-monitoring ishlari natijalari batafsil o'rganildi. Xususan, nazorat jarayonida aniqlangan muddati o'tgan debitor qarzdorlik miqdori, huquqbuzarlik holatlarining aniqlanish darajasi, aniqlangan muddati o'tgan debitor qarzdorlik yuzasidan qo'llanilgan moliyaviy jarimalar, huquqbuzarliklar bo'yicha hisoblangan qo'shimcha soliqlar va majburiy to'lovlar, shuningdek muddati o'tgan debitor qarzdorlikni qisqartirish hamda umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish ko'rsatkichlari 2010–2024-yillar davri va tadqiqotda belgilangan uch bosqichli nazorat monitoringi kesimida taqqoslab baholandi [4].

Mazkur baholash natijalari soliq nazorati monitoringi mexanizmlarining tashqi savdo operatsiyalarida moliyaviy intizomni mustahkamlash va qarzdorlikni samarali boshqarishdagi rolini aniqlash imkonini berdi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan o'tkazilgan soliq nazorati monitoringlari natijalariga ko'ra, har bir hisobot yilida tashqi savdo operatsiyalari umumiy aylanmasida muddati o'tgan debitor qarzdorliklarni aniqlash darajasi ko'rsatkichini aniqlash maqsadida (K_{xv}) indikator hisoblab chiqildi. Mazkur ko'rsatkich bir yil davomida aniqlangan jami muddati o'tgan debitor qarzdorlik miqdori (D_{qv}) ning o'sha yil uchun tashqi savdo operatsiyalari umumiy aylanmasi (TS_{av}) ga nisbati asosida foiz (%) ifodasida aniqlanadi.

$$K_{xv} = \frac{D_{qv}}{TS_{av}} \times 100\%$$

Bunda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi:

K_{xv} — muddati o'tgan debitor qarzdorlikni aniqlash darajasi, foiz (%);

D_{qv} — bir yil davomida aniqlangan muddati o'tgan debitor qarzdorlik miqdori (AQSH dollarida);

TS_{av} — yillik umumiy tashqi savdo aylanmasi miqdori (AQSH dollarida).

Soliq nazorati monitoringini yuritishning birinchi bosqichi (2010–2015-yillar) doirasida olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2010-yilda tashqi savdo aylanmasida muddati o'tgan debitor qarzdorliklarni yillik aniqlash darajasi 0,35 %ni, 2011-yilda

0,80 %ni, 2012-yilda 1,27 %ni, 2013-yilda 1,47 %ni va 2014-yilda 2,46 %ni tashkil etgan. 2015-yilda o'tkazilgan nazorat-monitoring ishlari natijasida ushbu ko'rsatkichning nisbatan pasayishi kuzatilib, muddati o'tgan debitor qarzdorlikni yillik aniqlash darajasi 2,19 %ga teng bo'lgan [5]. Mazkur holat soliq nazorati mexanizmlarining takomillashuvi va nazorat tadbirlarining samaradorligi bilan izohlanadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, soliq nazoratini yuritish davrlarida muddati o'tgan debitor qarzdorlikni yillik aniqlash darajasi ko'rsatkichlari turli iqtisodiy, tashkiliy va institutsional omillar ta'sirida ayrim yillarda o'sish, ayrim yillarda esa pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Shu bois, soliq nazoratini yuritishning har bir bosqich davriga kompleks baho berish maqsadida muddati o'tgan debitor qarzdorlikni aniqlash darajasining o'rtacha ko'rsatkichini hisoblab chiqish maqsadga muvofiq deb topildi.

Shu asosda, soliq nazoratini yuritishning har bir bosqich davri bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikni aniqlash darajasining o'rtacha ko'rsatkichi mazkur bosqich davrida yillar kesimida aniqlangan yillik ko'rsatkichlar yig'indisini ushbu bosqich doirasida hisobga olingan yillar soniga bo'lish orqali hisoblab aniqlandi. Ushbu yondashuv soliq nazorati monitoringining bosqichlar kesimidagi samaradorligini obyektiv baholash imkonini berdi.

$$A_n = \frac{E_{nyum}}{F_n}$$

Bunda,

A_n — Har bir bosqich davri uchun muddati o'tgan debitor qarzdorlikni aniqlash darajasining o'rtacha ko'rsatkichi. (n -bosqich raqami)

$$E_{nyum} = (K_{xv1} + K_{xv2} + K_{xv3} + K_{xv4} + \dots)$$

B u n d a :

E_{nyum} — har bir nazorat bosqichi davri bo'yicha yillar kesimida aniqlangan muddati o'tgan debitor qarzdorlikni aniqlash darajasi ko'rsatkichlari yig'indisi;

F_n — har bir nazorat bosqichi davri doirasida muddati o'tgan debitor qarzdorlikni aniqlash hisobga olingan yillar soni yig'indisi.

$$F_n = V_1 + V_2 + V_3 + V_4 + V_5 + \dots$$

V — hisobot yili uchun (1,2,3,4,.....) $V_1=2010$, $V_2=2011$, $V_3=2012$,

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq nazorati monitoringini yuritishning uchinchi bosqichi (2021–2024-yillar) davrida Davlat soliq xizmati tomonidan muddati o'tgan debitor qarzdorlik holatlarini aniqlash darajasi sezilarli darajada oshgan. Xususan, mazkur bosqichda muddati o'tgan debitor qarzdorlikni aniqlash darajasining o'rtacha ko'rsatkichi 8,78% ni tashkil etib, bu ko'rsatkich soliq nazorati monitoringining ikkinchi bosqichi (2016–2020-yillar) o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan 4,26 barobarga yuqori bo'lgan.

Soliq nazorati monitoringining uchinchi bosqichida, ya'ni 2024-yilga kelib, 2020-yilga nisbatan tashqi savdo faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida muddati o'tgan debitor qarzdorlikni aniqlash bo'yicha nazorat-monitoring tadbirlaridan qamrab olingan subyektlar soni 3,42 barobarga oshib, 12 235 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, bitta xo'jalik yurituvchi subyektda o'tkazilgan monitoring natijasida aniqlangan muddati o'tgan debitor qarzdorlikning o'rtacha miqdori 2020-yildagi 300 ming AQSH dollaridan 2024-yilda 522 ming AQSH dollariga yetdi.



Davlat soliq xizmati tomonidan tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha aniqlangan muddati o'tgan qarzdorliklar yuzasidan qo'llanilgan moliyaviy jarimalar hajmi ham izchil o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Xususan, soliq nazorati monitoringining ikkinchi bosqichida moliyaviy jarimalar o'rtacha 117,9 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, uchinchi bosqichda ushbu ko'rsatkich keskin oshib, o'rtacha 4 trln 598 mlrd so'mga yetdi.

Mazkur ijobiy natijalar soliq nazorati monitoringining uchinchi bosqichida eksport va import operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlik holatlarini aniqlash jarayonida raqamli iqtisodiyot sharoitida yagona elektron axborot tizimidan keng va kompleks foydalanilishi, shuningdek muddati o'tgan debitor qarzdorlikni qisqartirish hamda moliyaviy jarimalar qo'llash mexanizmlarining tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron platformasi asosida yanada takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, eksport va import operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikni nazorat qilish jarayonida bank muassasalari, bojxona organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda sud idoralari bilan o'zaro axborot almashinuvi va institutsional hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha amalga oshirilgan choralar soliq nazorati monitoringining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmon. Qonun hujjatlari ma'lumotlari bazasi, 2018-yil 30-iyun, 06/18/5468/1420-son; 2020-yil 19-mart, 06/20/5968/0331-son. <https://www.lex.uz/ru/docs/-3802378>
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Tashqi savdo statistikasi bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
4. Ташмухамедова Я.А. (2025). Влияние социально-демографических факторов на обеспечение экономической безопасности страны. Innovation Science and Technology, 1(10), 47–51.
5. Ташмухамедов Д., Ташмухамедова Я. Пути осуществления налогового контроля за внешнеторговой деятельностью. Политех-пресс конференция: «Интеллектуальная инженерная экономика и Индустрия 6.0 (ИНПРОМ-2025)», Санкт-Петербург, 2025-yil 27–30-aprel. Tashkilotchi: Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого.
6. Akramov F.A. (2022). Soliq xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish. 08.00.08 — "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.
7. Tashmuxamedova Y. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda soliq tizimi xavfsizligini ta'minlash. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(12).
8. TheGlobalEconomy. Uzbekistan: Tax revenue (% of GDP). URL: https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/tax_revenue/

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100